



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SHVETSIYA VA O'ZBEKISTON BANKLARINING FARQLARI

Murodova Zilola Asatullo qizi
JIDU magistranti

S.Saidqosimov
Falsafa fanlari doktori. Professor

Annotasiya: Ushbu maqolada Raqamli iqtisodiyot, ushbu turdagi iqtisodiyot rivojlanishida bank innovatsiyalarning o'рни, raqamli bank tizimining O'zbekistondagi hozirgi kundagi holati va ushbu turdagi bank xizmatlarining aholiga yaratib berayotgan qulayliklari va mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishidagi o'рни, hozirgi kunda masofaviy banklarning Shvetsiya banklari bo'yicha holati va O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarining holati, uni qanday rivojlantirish kerakligi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Online banking, raqamli iqtisodiyot, masofaviy bank xizmatlari, mobil banking, swish payment, Swedbank, Anorbank, TBC bank.

Аннотация: В данной статье рассматривается цифровая экономика, роль банковских инноваций в развитии этого типа экономики, современное состояние цифровой банковской системы в Узбекистане и удобства, которые этот вид банковских услуг предоставляет населению, а также роль дистанционные банки в развитии экономики нашей страны сегодня, по мнению шведских банков была упомянута ситуация и положение дистанционного банковского обслуживания в Узбекистане, пути его развития.

Ключевые слова: Интернет-банкинг, цифровая экономика, дистанционные банковские услуги, мобильный банкинг, платеж Swish, Swedbank, Anorbank, TBC банк.

Annotation: In this article, the digital economy, the role of banking innovations in the development of this type of economy, the current state of the digital banking system in Uzbekistan and the conveniences that this type of banking services provide to the population, and the role of remote banks in the development of our country's economy today, according to Swedish banks the situation and the situation of remote banking services in Uzbekistan, how to develop it was mentioned.

Keywords: Online banking, digital economy, remote banking services, mobile banking, swish payment, Swedbank, Anorbank, TBC bank.

Hozirgi kunda deyarli barcha davlatlarda iqtisodiyotning raqamlashish jarayoni jadal rivojlanmoqda. Ushbu maqolada men Raqamli iqtisodiyot tushunchasini, butun dunyo bo'yicha raqamli iqtisodiyot eng rivojlangan davlatlar, raqamli iqtisodiyot sharoitida bank innovatsiyalari va O'zbekiston banklarining Shvetsiya banklari bilan farqlarini yoritib bermoqchiman. Birinchi navbatda biz raqamli iqtisodiyot tushunchasi nima ekanligini bilib olishimiz kerak. **Raqamli iqtisodiyot** bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotning yangi turi hisoblanadi. Ba'zida ushbu tushuncha yangi iqtisodiyot yoki internet iqtisodiyoti deb ham ataladi. Raqamli



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

iqtisodiyot sharoitida barcha xizmatlar online ,masofadan turib boshqariladi. Raqamlilashtirish mijozlarga biznesning eng keng sohalarida imkoniyatlar yaratishi kerak. Imkoniyatlarni kuchaytirish nafaqat operativ jihatlariga (o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish), balki bilim va qaror qabul qilish darajalariga ham tegishli. Bundan tashqari, biz an'anaviy biznes modellarini ortda qoldirib, kelajakka yo'naltirilgan biznes modellarini ishlab chiqish uchun ushbu yangi imkoniyatlarga ochiq bo'lishimiz kerak. Ushbu turdagi iqtisodiyot mamlakatda rivojlanishi uchun birinchi navbatda internet tezligi yuqori bo'lishi talab qilinadi. Raqamli iqtisodiyotning mamlakat aholisiga ko'rsatadigan **qulayliklarini** sanab o'tamiz:

- masofadan turib ishlash, ya'ni raqamli iqtisodiyot rivojlanayotganligi sababli xodimlarning o'z uylarida turib ishlay olishlari;

- tijorat sohasidagi afzalliklar: iste'molchilarning masofadan turib o'z mobil aloqalari xarid qila olishligi;

- masofaviy xizmatlarning rivojlanishi orqali vaqtning tejaliishi;

- transport va yo'lga ketadigan xarajatlarning qisqarishi;

- yangi ish o'rinlarining ko'payishi, ya'ni yangi texnologiyalarni boshqarish bo'yicha kadrlar yetishtirish;

Ta'lim sohasidagi yangi yo'nalishlar: IT sohasi bo'yicha kadrlarga bo'lgan talab va yana bir qancha qulayliklarini olishimiz mumkin. Ammo raqamli iqtisodiyotning afzalliklari bilan birgalikda **zararli taraflari** ham mavjud:

- birinchi navbatda an'anaviy ish o'rinlarining qisqarishi iqtisodiyotga katta zarar keltirishi mumkin, masalan savdo sohasini oladigan bo'lsak, bozorlarda va korxonalarda ishchi xodimlarning ishini texnologiyalar bajara olishligi ishchi o'rinlarini qisqarishiga olib kelishi mumkin;

- yangi texnologiyalarni qo'llashda bo'lgan qiyinchiliklar: aholining texnologiyani qo'llashda bo'lgan savodxonlikning pastligi;

- bozorda tovar va xizmatlarning masofaviy sotilishi jarayonidagi kamchiliklar, masalan sotib olingan tovarning rasmda ko'ringanidagidek emasligi ;

- kiberxavfsizlik muammolari ya'ni internet orqali qilinayotgan faoliyatlarining kiberxujumga duch kelishi, ma'lumotlarning buzilishi kabi muammolarga olib kelishi mumkin. Bugungi mavzuimiz iqtisodiyotning raqamlashishi sharoitida banklarning o'rni, bank innovatsiyalari va O'zbekiston va Shvetsiya banklarining farqlarini ko'rib chiqamiz. Dunyo bo'yicha banklarning raqamlashishi bo'yicha Kanada, Niderlandiya, Fransiya, Shvetsiya davlari eng yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi¹.

¹ <https://www.comscore.com/fre/Perspectives/Infographics/Top-10-Countries-by-Online-Banking-Penetration>



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

O'zbekiston ham asta-sekin online bank tizimga o'tmoqda. Prezidentimizning ning "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni imzolanganach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yana-da kengaytirish vazifasi yuklatilgan.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda 2020 yilda "**Anorbank**" va "**TBC bank**"lar raqamli bank sifatida ro'yxatga olindi. Boshqa davlatlar qatorida O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni rivojlanib bormoqda. Hukumat yangi raqamlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, texnologik innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Bunga yaqqol misol sifatida 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan "**Raqamli O'zbekiston-2030**" strategiyasini misol qilib olishimiz mumkin. Ushbu startegiya 10 yilga mo'ljallangan bo'lib O'zbekistonda barcha sohalarning raqamlashishi jarayoning rivojlanishiga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Ushbu strategiyada bank tizimida raqamlashtirish chora-tadbirlariga asosan urg'u berib ketilgan.²

Shuningdek, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning o'sishiga hissa qo'shayotgan texnologik startaplar va IT-kompaniyalar soni ko'paymoqda. IT-sohasini rivojlantirish yo'lida ushbu sohaga qaratilgan alohida institut va yo'nalishlar ochildi. O'tgan yilgi ma'lumotlarga qaraganda IT sohasida o'qiyotgan talabalar soni 6000 nafardan oshgan. Banklar iqtisodiyotning raqamlashishida asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda 2000-yillarning boshida moliyaviy modernizatsiya bo'yicha keng ko'lamli say-harakatlar doirasida birinchi online banking tizimi yo'lga qo'yilgan va hozirgacha ushbu tizim rivojlanib kelmoqda. O'zbekistonning online banking tizimi boshqa davlatlar kabi ishlamoqda. Ayniqsa Covid-19 pandemiyasi banklarning masofaviy xizmat ko'rsatishi rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni **20 milliondan** oshdi. Respublikada bankomatlar soni 2020-yil darajasiga nisbatan 10% ga oshdi. 2021-yilda mamlakatimizda 12 814 ta bankomat o'rnatilgan. Bundan tashqari, muomalada 26,5 million donadan ortiq bank kartalari mavjud bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 500 mingtaga ko'pdir. O'zbekiston 2018-yilda raqamli bankingni rivojlantirishga yo'l oldi. Bundan ko'zlangan maqsad barcha bank xizmatlarini masofaviy qilish — tadbirkorlar ham, aholi ham ularni telefon yoki internet orqali olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

² <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

COVID-19 pandemiyasi masofaviy bank xizmatlariga o'tishni sezilarli darajada tezlashtirdi. 2020-yilda bankomatlar soni 33% ga, bank kartalari soni 27% ga oshdi. Bundan tashqari, to'liq raqamli banklar (TBC UZ, Anorbank) paydo bo'ldi va an'anaviy banklar onlayn xizmatlar takliflarini kengaytirdi. 2021-yil oktyabr oyida Markaziy bank banklarga mijozlarni masofadan aniqlashga [ruxsat berdi](#). Bu esa mijozlarga ilgari xizmat ko'rsatilmagan banklarda ham masofaviy xizmatlardan foydalanish [imkonini berdi](#).

Ushbu tizim aholiga qanday qulayliklar keltirib chiqarishini ko'rib chiqamiz:

- masofadan turib mijozlarga o'z hisoblariga kira olishi;
- o'z mablag'larini o'z uylarida yoki yo'lda smartfonlari orqali o'z mablag'larini boshqara olishi;
- masofaviy pul o'tkazmalari;
- online kredit olish;
- xotirjamlikni ta'minlovchi tranzaksiya haqida ogohlantirishlar kabi kengaytirilgan xavfsizlik xususiyatlari kabi imkoniyatlarni yaratib beradi.

Anorbank mobil ilovasida mavjud imkoniyatlarni sanab o'tamiz:³

- i. NFC orqali Face ID bilan oson ro'yxatdan
- ii. Qulay interfeys
- iii. Aqlli o'tkazma
- iv. Kartalarni buyurtma qilish va yetkazib berish
- v. Valyuta ayirboshlash operatsiyalari
- vi. Xizmatlar bo'yicha to'lovlar
- vii. Kreditlarni rasmiylashtirish
- viii. Omonatlarni ochish va boshqarish
- ix. Life ID orqali xavfsizlikni boshqarish
- x. Kartalarni bloklash
- xi. Hisob raqamlar va kartalar o'rtasida o'tkazmalar
- xii. Kartalar va hisob raqamlar bo'yicha ma'lumotnoma va ko'chirmalar
- xiii. Avtoto'lovlar

Ushbu qulayliklarni mijozlarga yetkazib berish orqali Anorbank **2021-yilda quyidagi natijalarga** erishdi:

- ✓ -butun Respublikaga xizmat ko'rsatish boshlandi;
- ✓ -jamoadagi xodimlar soni 850 taga yetdi;

³ <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-bank-xizmatlari-va-uning-afzalliklari/viewer>



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

✓ -hamkorlar soni 2500 dan oshdi;

Ikki yuzdan ortiq tashkilotlar umumiy hisobda 20 milliard so'm nominalli oylik maoshlarini Anorbank orqali o'tkazishdi va boshqa bir nechta yutuqlarga erishdi. Shunday qilib hozirgi kunga kelib mamlakatimizda deyarli barcha banklar masofaviy xizmatlarni **mobil banking tizimi** orqali ko'rsatmoqda. Quyidagi jadvalda O'zbekiston bo'ylab masofaviy xizmat ko'rsatuvchi banklardan foydalanuvchilar soni berilgan.

Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2023-yil 1-noyabr holatiga⁴

| № | Bank | Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar | Jismoniy shaxslar | Jami |
|----|-----------------------------------|---|-------------------|-----------|
| 1 | Milliy bank | 97 296 | 1 614 472 | 1 711 768 |
| 2 | O'zbekiston sanoat-qurilish banki | 72 183 | 5 993 998 | 6 066 181 |
| 3 | Agrobank | 197 533 | 5 378 755 | 5 576 288 |
| 4 | Ipoteka-bank | 164 079 | 2 793 710 | 2 957 789 |
| 5 | Mikrokreditbank | 69 436 | 980 080 | 1 049 516 |
| 6 | Xalq banki | 117 911 | 3 904 633 | 4 022 544 |
| 7 | Garant bank | 6 853 | 93 383 | 100 236 |
| 8 | Biznesni rivojlantirish banki | 29 407 | 256 665 | 286 072 |
| 9 | Turonbank | 47 590 | 456 346 | 503 936 |
| 10 | Hamkorbank | 123 737 | 1 551 297 | 1 675 034 |
| 11 | Asaka bank | 36 586 | 906 140 | 942 726 |
| 12 | Ipak Yo'li banki | 60 119 | 2 126 982 | 2 187 101 |
| 13 | Ziraat bank Uzbekistan | 4 370 | 55 051 | 59 421 |
| 14 | Trastbank | 48 039 | 146 376 | 194 415 |
| 15 | Aloqabank | 62 638 | 1 481 822 | 1 544 460 |
| 16 | KDB Bank O'zbekiston | 16 406 | 27 869 | 44 275 |
| 17 | Soderot bank Toshkent | 357 | 2 400 | 2 757 |
| 18 | Universal bank | 11 961 | 142 644 | 154 605 |
| 19 | Kapitalbank | 35 391 | 1 212 057 | 1 247 448 |

⁴ <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem/1512282/>



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

| | | | | |
|-------------|---------------------|------------------|-------------------|-------------------|
| 20 | Octobank | 2 714 | 66 217 | 68 931 |
| 21 | Davr-bank | 26 088 | 193 682 | 219 770 |
| 22 | Invest Finance bank | 17 731 | 386 832 | 404 563 |
| 23 | Asia Alliance bank | 20 025 | 627 921 | 647 946 |
| 24 | Orient Finans bank | 29 552 | 521 333 | 550 885 |
| 25 | Madad Invest bank | 1 104 | 2 611 | 3 715 |
| 26 | AVO bank | 109 | 405 | 514 |
| 27 | Poytaxt bank | 1 090 | 10 491 | 11 581 |
| 28 | Tenge bank | 2 221 | 629 822 | 632 043 |
| 29 | TBC bank | 0 | 1 721 587 | 1 721 587 |
| 30 | ANOR bank | 23 230 | 3 524 261 | 3 547 491 |
| 31 | UZUM bank | 0 | 1 440 000 | 1 440 000 |
| Jami | | 1 325 756 | 38 249 842 | 39 575 598 |

Ushbu berilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni jami 39 575 598 ming tani ko'rsatayapdi, shundan 1325756 mingtasi Yuridik shaxslarga, 38249 842 tasi jismoniy shaxslarni tashkil etayapdi. O'zbekiston sanoat qurilish banki eng ko'p masofaviy xizmatlarni ko'rsatuvchi bank ekanligini ko'rishimiz mumkin. AVO bank eng quyi ko'rsatkichni 514 ta mijoz bilan egallagan. Xorijiy davlatlarda ketayotgan raqamlashtirish sharoitida online banking tizimini ko'radigan bo'lsak eng rivojlangan davlatlar raqamlashtirish sharoitiga deyarli to'liq o'tgan. **Shvetsiya davlatini** bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu davlat qo'g'oz pullardan voz kechgan va elektron pul tizimiga to'liq o'tgan birinchi davlat hisoblanadi. Bu mamlakatda raqamli iqtisodiyot judayam rivojlangan. Dunyodagi eng raqamlashgan banklar qatorida Shvetsiya banklari top 5 talikdan o'rin olgan. Misol qilib aytadigan bo'lsak, **Swedbank**, **SEB** va **Handelsbanken** kabi banklar Shvetsiyadagi eng rivojlangan banklar hisoblanadi va ular mijozlarga bir necha raqamli xizmatlarni ko'rsatadi.

Shuningdek **Swish** mobil to'lov tizimi Yevropa mobil to'lov tizimi assotsiatsiyasining a'zosi bo'lgan Shvetsiya bankirlar uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan masofaviy xizmat ko'rsatuvchi mobil dastur va Swish hozirda Shvetsiya va Finlyandiyada mavjud. Xizmat foydalanuvchilarga bank hisob raqamlari yoki mobil telefon raqamlari orqali to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Swish-ning 8 million shaxsiy foydalanuvchisi bor va 300 000 dan ortiq biznes tomonidan qabul qilinadi. U savdogarlardan har bir tranzaksiya uchun standart 2 kron



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

(taxminan \$0,09 AQSh dollari) undiradi, lekin bu kompaniyaga qarab farq qiladi. Swish foydalanuvchilarga naqd pul yoki jismoniy kartalarsiz real vaqt rejimida pul jo'natish va qabul qilish imkonini beradi. Odatda hisob-kitoblarni bo'lish, onlayn xaridlar uchun to'lash yoki do'stlar va oilangizga pul jo'natish kabi turli xil operatsiyalar uchun ishlatiladi. Swish-dan foydalanish uchun foydalanuvchilar Swish ilovasini yuklab olishlari, uni bank hisoblariga bog'lashlari kerak va keyin ular mobil telefon raqamlari yordamida to'lovlarni amalga oshirishni boshlashlari mumkin. Shvetsiyadagi bir nechta banklar dunyo bo'ylab eng rivojlangan banklar reytingida yuqori pog'onalarni egallaydi va eng yirik banklardan biri Swedbank hisoblanadi. Ushbu bankning boshqa davlatlarda 4 ta filiali mavjud. U bundan 203 yil oldin tashkil etilgan. Swedbankning so'nggi moliyaviy hisobotlariga ko'ra, kompaniyaning jami aktivlari \$276,41 milliardni tashkil etadi. Kompaniyaning jami aktivlari tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag'lari va naqd pul ekvivalentlari, mulk va jihozlar kabi barcha aylanma va aylanma aktivlarning yig'indisidir.⁵ Shuningdek Shvetsiyada eng qulay to'lov turlari mavjud va ular quyidagilar hisoblanadi:

1. Karta to'lovlari

Debet va kredit kartalari Shvetsiyada shaxsan ham, onlaynda ham qo'llaniladigan eng yaxshi to'lov usullari hisoblanadi. Riksbank (Shvetsiya Markaziy banki) ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda amalga oshirilgan tranzaksiyalarning 59 foizi karta operatsiyalari bo'lgan. Statista ma'lumotlariga ko'ra, Mastercard va Visa Shvetsiyadagi eng yaxshi ikki karta emitentlari bo'lib, Mastercard bozor ulushining 59 foizini egallaydi, ikkinchi o'rinda Visa 39 foiz ulushiga ega. American Express bozor ulushining 1% ga ega.

2. Bank o'tkazmalari

JP Morgan ma'lumotlariga ko'ra, bank o'tkazmalari Shvetsiyadagi barcha onlayn tranzaksiyalarning deyarli 32 foizini tashkil qiladi. Riksbank ma'lumotlariga ko'ra, karta operatsiyalari soni ko'proq bo'lsa-da, bank o'tkazmalari umumiy pul qiymatining katta qismini tashkil qiladi.

4. Klarna - Endi sotib oling, keyinroq to'lang (BNPL)

So'nggi o'n yil ichida butun dunyo bo'ylab BNPL xizmatlarida katta o'sish kuzatildi va Shvetsiya ham bundan mustasno emas. Aslida, BNPL sanoatining eng yirik o'yinchilaridan biri - Klarna - 2005 yilda Shvetsiyada tashkil etilgan. Statista ma'lumotlariga ko'ra, Shvetsiyada so'rovda qatnashgan 1000 kishining 84 foizi ushbu xizmat bilan tanish edi.

⁵ <https://companiesmarketcap.com/swedbank/total-assets/>



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

5. Raqamli hamyonlar

PayPal, Apple Pay va Samsung Pay kabi raqamli hamyonlar ham Shvetsiyada mashhur to'lov usullari hisoblanadi. Swish-ning o'sishi bilan ular foydalanishni kamaytirgan bo'lsa-da, Riksbankning xabar berishicha, odamlarning 25 foizi ushbu muqobil raqamli to'lov usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Bu raqam yosh demografik guruhlar uchun yanada yuqori, 18-44 yoshlilarning deyarli 40% Swishdan tashqari raqamli hamyonga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak O'zbekiston va Shvetsiya banklarining masofaviy xizmat turi o'rtasida farq ancha katta. Raqamlashish sharoitiga o'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori ko'rsatkichlarni AQSH, Xitoy, Daniya, Niderlandiya, Shvetsiya davlatlari egallab turibdi, afsuski O'zbekiston juda ham past ko'rsatkichni ko'rsatgan. Shvetsiya banklarining masofaviy xizmat turlaridan butun dunyo foydalanadi. Bu davlat raqamlashgan iqtisodiyotga to'liq o'tib bo'lgan va aholisi masofaviy xizmat turlaridan to'liq foydalanmoqda. O'zbekistonda esa ushbu tizim sekinlik bilan o'tmoqda. Bunday asta-sekin rivojlanishga bir nechta **sabablarni** keltirishimiz mumkin:

- Internet tezligining pastligi : Simli internet tezligi 21,67 Mbit/s va bu ilg'or davlatlarnikidan 10 barobar past;
- Aholining yangi texnologiyalardan foydalanish uchun bilim va ko'nikmalarining mavjud emasligi;
- Axborot-texnologiyalar sohasidagi bilim yurtlarning kamligi va mutaxassis yetishmasligi kabi bir nechta muammolarni sanab o'tishimiz mumkin. Ushbu muammoga **yechim** sifatida bir nechta yechimlarni aytib o'taman:

Aholini birinchi navbatda an'anaviy tizimdan foydalanishning noqulayliklari va yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish;

Ko'proq yoshlarni IT sohasiga qiziqtirish va ularni chet davlatlarda bilim olib amaliyot o'tab kelishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish;

Mamlakatimizda ham IT-sohasiga bog'liq bo'lgan universitetlar sonini ko'paytirish;

Internet tezligini yaxshilash;

Bank xodimlarini qaytadan IT-sohasida o'qitish uchun tayyorlash va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khudoykulov, H. A., & Sherov, A. B. (2021). Digital economy development in corporate governance of joint stock company

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



2. Маткулиева С, Атабаева К . Роль цифровых банковских услуг в развитии отраслей и отраслей экономике
3. А Б Шероев б & Х М Раджабов (2021) Коммерческие банки как субъект финансирования инвестиционных проектов.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-bank-xizmatlari-va-uning-afzalliklari/viewer>
5. <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem/1512282/>
6. <https://www.comscore.com/fre/Perspectives/Infographics/Top-10-Countries-by-Online-Banking-Penetration>
7. <https://lex.uz/ru/docs/-503095>

